



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari.....	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjialiyevena</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes.....	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar.....	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli.....	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi.....	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Saida Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Hakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati.....	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы.....	211
Сулейманова Нилуфар Камилловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'ribojevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafuz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	



IJODKORLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA UNING TA'LIMDAGI ROLI

Ochilova Dilbar Isroilovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
 "Pedagogika va psixologiya" kafedrasida magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijodkorlik tushunchasining nazariy asoslari, uning mohiyati hamda ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ijodkorlikning shaxs kamolotidagi ahamiyati, ta'lim muassasalarida uni rivojlantirish yo'llari hamda pedagogik faoliyatda ijodiy yondashuvning zarurligi ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada, shuningdek, ijodkorlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar, innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, ta'lim jarayoni, innovatsiya, mustaqil fikrlash, pedagogik faoliyat, shaxs kamoloti, kreativ yondashuv.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of the concept of creativity, its essence, and its role in the educational process. The importance of creativity in personal development, the ways of fostering it in educational institutions, and the necessity of a creative approach in pedagogical activities are explained on a scientific basis. The article also examines the factors contributing to the development of creativity, innovative educational technologies, and effective methods for enhancing students' independent thinking skills.

Key words: creativity, educational process, innovation, independent thinking, pedagogical activity, personal development, creative approach.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы понятия творчества, его сущность и роль в образовательном процессе. На научной основе раскрывается значение творчества в развитии личности, пути его формирования в образовательных учреждениях, а также необходимость творческого подхода в педагогической деятельности. Кроме того, в статье рассматриваются факторы, способствующие развитию творческих способностей, инновационные образовательные технологии и эффективные методы формирования навыков самостоятельного мышления у студентов.

Ключевые слова: творчество, образовательный процесс, инновации, самостоятельное мышление, педагогическая деятельность, развитие личности, творческий подход.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida ijodkorlik inson faoliyatining eng muhim sifatlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki bugungi kunda ta'limdan kutilayotgan asosiy natija – bu tayyor bilimlarni egallash emas, balki ularni mustaqil ravishda qo'llay olish, yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatidir. Shuning uchun ham ijodkorlik shaxsning intellektual salohiyatini namoyon etuvchi, uni ijtimoiy hayotda faol va raqobatbardosh qilib shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sanaladi. Ijodkorlik nafaqat san'at yoki adabiyot sohasiga xos tushuncha, balki har bir sohada yangi g'oya, innovatsiya va ilg'or tajribalarning manbai hisoblanadi. Ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, tahliliy yondashuvini va muammolarning original yechimini topish qobiliyatini oshiradi. Shu bois zamonaviy pedagogika fanida ijodkorlikni shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida ko'rib chiqilmoqda. Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ham ijodkorlikka alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *"Yangi O'zbekistonning poydevorini bilimli, tafakkurli va ijodkor yoshlar yaratadi."* Mazkur fikr ijodkorlikning ta'lim tizimida tutgan o'rni naqadar muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, ijodkorlikni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, uning mohiyatini anglash hamda ta'lim amaliyotida samarali qo'llash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijodkorlik masalasi ta'lim psixologiyasi va pedagogika sohasida uzoq yillardan beri ilmiy tadqiqotlarning markazida turib kelmoqda. O'zbekistonlik olimlardan Yuldashev M. o'zining "Pedagogik innovatsiyalar va ijodkorlikni rivojlantirish" asarida ijodiy fikrlashni ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida baholab, uni shaxsning mustaqil qaror qabul qilish va yangicha yondashuvni shakllantiruvchi omil sifatida talqin etadi. G'ulomov A. va To'xtayev N. tomonidan ishlab chiqilgan "Ta'lim jarayonida ijodiy fikrlashni shakllantirish metodikasi" asarida esa o'quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun muammoli ta'lim, loyiha asosida o'qitish va interfaol metodlarning samarasi ilmiy asosda yoritilgan. Xodjayeveva Z. o'z maqolalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ijodkorlikni faollashtiruvchi muhim vosita ekanini ta'kidlaydi.

Xorijiy olimlardan Ken Robinson ijodkorlikni inson tafakkurining tabiiy, ammo ta'lim jarayonida ko'pincha cheklab qo'yiladigan qobiliyat sifatida tahlil qilib, uni har bir o'quvchida qayta uyg'otish zarurligini asoslab beradi. R. Sternberg esa ijodkorlikni intellekt, motivatsiya va bilimning uyg'un faoliyati deb ta'riflaydi hamda ta'limda bu jarayonni boshqarish mexanizmlarini ko'rsatadi. L. S. Vygotskiy esa ijodkorlikni bolaning tasavvuri, emosional tajribasi va ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda izohlaydi. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodkorlikni rivojlantirish ta'limning samaradorligini oshirish, o'quvchini faol sub'ektga aylantirish va shaxsning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishda hal qiluvchi omildir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ijodkorlik tushunchasining ta'limdagi o'rnini aniqlash maqsadida nazariy va empirik usullarga tayanadi. Ma'lumotlar pedagogik adabiyotlar, ilmiy maqolalar va amaliy tajribalar asosida to'plandi. O'qituvchilar va talabalar o'rtasida suhbat, so'rovnomalar va kuzatish usullari yordamida ijodiy faoliyatni rivojlantirish omillari o'rganildi. Olingan ma'lumotlar tahliliy, taqqoslama va statistik usullar orqali qayta ishlanib, ta'lim jarayonida ijodkorlikni shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy pedagogik shart-sharoitlar aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijodkorlik – bu inson tafakkurining eng yuksak darajasi bo'lib, yangilik yaratish, mavjud bilim va tajribalarni qayta talqin etish, ularni yangi sharoitda qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Ijodkorlik jarayonida shaxs o'z fikrlash doirasidan chiqib, an'anaviy yondashuvlardan farqli, original g'oyalarni ilgari suradi. Shu ma'noda, ijodkorlik – bu inson tafakkurining dinamik, moslashuvchan va intuitiv jihatlarni mujassamlashtiruvchi murakkab psixologik hamda ijtimoiy hodisadir. Psixologik jihatdan ijodkorlik shaxsning ichki ehtiyoji, o'zini ifoda etish va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ijodiy tafakkur insonning sezgi, tasavvur va hissiyotlarini uyg'unlashtiradi, shu orqali yangi g'oyalar va yechimlar yaratiladi. Shaxsning ijodiy faolligi – bu erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy tahlil yuritish hamda mavjud bilimlarni yangicha talqin etish jarayonidir. Ilmiy adabiyotlarda ijodkorlik turlicha ta'riflanadi. Ba'zi olimlar uni "yangilik yaratuvchi tafakkur shakli", boshqalar esa "shaxsning original fikrlar va nostandart yechimlarni ilgari surish qobiliyati" sifatida talqin etadi. Ammo barcha ta'riflarning umumiy jihati shundan iboratki, ijodkorlik har qanday sohada yangilik yaratish, mavjud holatni yaxshilash va uni takomillashtirishga qaratilgan faoliyat sifatida e'tirof etiladi. Ijodkorlikning mohiyati uning doimiy izlanish va o'zgarishga asoslanganligidadir. U insonni noma'lumni o'rganishga, yangi yo'nalishlarni kashf etishga undaydi. Shu bois ijodkorlik – bu insoniyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi, ilm-fan, madaniyat va texnologik yutuqlarning manbai hisoblanadi. Shuningdek, ijodkorlik inson shaxsiyatining ajralmas jihati bo'lib, uni har bir insonda rivojlantirish mumkin.

Ijodkorlikning mohiyatida insonning erkin fikrlashi, o'z g'oyalarini himoya qila olishi, mavjud muammolarga nostandart yechim topish qobiliyati yotadi. Bu esa uni zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim komponentlaridan biriga aylantiradi. Ta'lim jarayoni ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir. Chunki ta'lim – bu nafaqat bilim berish jarayoni, balki shaxsning tafakkuri, dunyoqarashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir. Zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi o'quvchilarga tayyor bilimlarni singdirish emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, muammolarga yangicha yondashishga va o'z g'oyalarini amaliyotda qo'llashga o'rgatishdan iborat. Ijodkorlikni rivojlantirishda ta'lim muhitining ochiqligi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi erkin muloqot, hamkorlik va o'zaro ishonch muhim o'rin tutadi. Shaxsning ijodiy salohiyati aynan shunday qulay, rag'batlantiruvchi muhitda to'liq namoyon bo'ladi. Bu jarayonda o'qituvchining roli o'ta ahamiyatli bo'lib, u o'rgatuvchi emas, balki yo'naltiruvchi, ijodiy fikrlashga undovchi shaxs sifatida maydonga chiqadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi ham ijodkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



“Brainstorming”, “project-based learning”, “case-study”, “debate” kabi interfaol metodlar o‘quvchilarni faol fikrlash, muammolarni tahlil qilish va original yechim topishga yo‘naltiradi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalari va raqamli platformalarning keng qo‘llanilishi o‘quvchilarning bilish doirasini kengaytirib, ularning ijodiy izlanish faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Ijodkorlikni rivojlantirishda ta‘limning yana bir muhim jihati – o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish va o‘z fikrini erkin ifoda etish imkoniyatini ta‘minlashdir. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularning ijodiy yechimlarini topishga yo‘naltirilgan topshiriqlar berilishi lozim. Demak, ijodkorlikni rivojlantiruvchi ta‘lim – bu o‘quvchi shaxsini markazga qo‘ygan, uning tafakkurini erkinlashtiruvchi va o‘z g‘oyalarini amalga oshirishga undovchi tizimdir. Bunday ta‘lim nafaqat bilim beradi, balki shaxsni yangilik yaratuvchi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘sha oladigan ijodkor inson sifatida shakllantiradi.

Ijodkorlikni shakllantirish samaradorligi, avvalo, ta‘lim jarayonida yaratiladigan pedagogik muhit va unga asos bo‘ladigan tamoyillarga bog‘liq. Zamonaviy ta‘lim tizimida ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘quvchi shaxsining qobiliyatlarini erkin namoyon etishiga imkon beruvchi sharoit yaratish zarur. Bu sharoit o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ochiq muloqot, o‘zaro ishonch va hamkorlik tamoyillariga asoslanishi lozim.

Ijodkorlikni rivojlantirishning asosiy pedagogik shartlari quyidagilardan iborat:

1. **Erkin fikrlash muhitini yaratish.** O‘quvchilar o‘z g‘oyalarini qo‘rqmasdan bildira oladigan, tanqidiy fikrlar erkin almashiladigan muhit ijodiy faollikni rag‘batlantiradi.
2. **Motivatsion omillarni kuchaytirish.** Rag‘bat, tan olish va ijobiy fikr-mulohaza o‘quvchilarda ijodiy faoliyatga nisbatan qiziqishni oshiradi.
3. **Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish.** Muammoli o‘qitish, loyiha asosida ta‘lim, interfaol metodlar va AKT vositalari o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini kengaytiradi.
4. **Hamkorlikka asoslangan o‘qitish.** Guruhiy ish, jamoaviy loyihalar va o‘zaro fikr almashuv o‘quvchilarda yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va ularni birgalikda amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.
5. **Shaxsiy yondashuv tamoyili.** Har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari, qiziqishlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olish ijodiy salohiyatni to‘liq ochishga yordam beradi.

Pedagogik tamoyillar orasida “ijodiy mustaqillikni qo‘llab-quvvatlash”, “o‘quvchi markazli ta‘lim” va “doimiy tahlil hamda refleksiya” alohida o‘rin tutadi. O‘qituvchi o‘quvchilarni tayyor javoblarga yo‘naltirmasdan, ularda mustaqil izlanish, tanqidiy yondashuv va nostandard fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim. Ijodkorlikni shakllantirishning yana bir muhim jihati – bu psixologik qo‘llab-quvvatlashdir. O‘quvchi o‘zini qadrlangan, e‘tirof etilgan va erkin his qilgan muhitda ijodiy faoliyatga yanada faol kirishadi. Shuningdek, o‘qituvchining shaxsiy namunasi, ochiq fikrliligi va innovatsion yondashuvi ham o‘quvchilarga ilhom bag‘ishlaydi.

Ijodkorlik inson tafakkurining eng yuqori shakli bo‘lib, uning rivojlanishida bir qator psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillar muhim rol o‘ynaydi. Ijodkorlikni shakllantirish jarayoni insonning ichki motivatsiyasi, bilishga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil fikrlash qobiliyati va o‘ziga ishonchi bilan chambarchas bog‘liq. Shuningdek, o‘quv muhitining qulayligi, o‘qituvchining rag‘batlantiruvchi yondashuvi hamda ta‘lim jarayonida erkinlik va tashabbuskorlikka e‘tibor berilishi ijodkorlikning kuchli katalizatori hisoblanadi. Psixologik jihatdan ijodiy tafakkur erkin fikrlash, tasavvur va intuitiv qaror qabul qilish jarayonlarini talab etadi. Shuning uchun o‘quvchilarda stressni kamaytiruvchi, erkin fikrlashga undovchi ijobiy muhit yaratish zarur. Ijtimoiy omillar orasida esa hamkorlik, muloqot, jamoaviy ijodiy faoliyat va o‘zaro g‘oyalar almashinuvi alohida ahamiyatga ega. Ana shunday muhitda shaxs o‘zining ijodiy potensialini erkin namoyon eta oladi.

Pedagogik omillar nuqtayi nazaridan, ijodkorlikni rivojlantirish uchun o‘qituvchi dars jarayonida interfaol uslublardan, muammoli savollar va tahliliy topshiriqlardan foydalanishi lozim. Ta‘lim jarayonida o‘quvchining shaxsiy fikrini hurmat qilish, uning mustaqil qaror qabul qilishini qo‘llab-quvvatlash ham ijodkorlikni rivojlantirishning samarali yo‘lidir. Shu bilan birga, zamonaviy ta‘limda axborot texnologiyalari, raqamli vositalar va ijodiy platformalardan foydalanish ham ijodiy tafakkurni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday integratsion yondashuv orqali talabalarda nafaqat bilim, balki yangicha fikrlash va innovatsion qarashlar tizimi ham rivojlanadi.

Zamonaviy ta‘lim jarayoni o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlash va yangicha yondashuv asosida qaror qabul qilishga o‘rgatishni talab qiladi. Shu bois ta‘limda ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Ijodiy metodlar o‘quvchilarda yangilik yaratish, muammolarni noodatiy yo‘l bilan hal etish, tahliliy fikrlash va refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘ladi. Ijodkorlikni rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri – loyiha asosida o‘qitish metodidir. Bu yondashuv o‘quvchilarning amaliy faoliyatga jalb etilishini, o‘z g‘oyalarini hayotga tatbiq etish imkoniyatini beradi. Loyiha faoliyati jarayonida o‘quvchi mustaqil izlanadi, yangi axborotlarni tahlil qiladi, o‘z fikrini dalillar bilan asoslaydi va jamoa bilan hamkorlikda yechim topadi. Shuningdek, muammoli ta‘lim metodi ham ijodkorlikni kuchaytiruvchi asosiy

vositalardan biridir. Bu metodda o'qituvchi o'quvchilarni an'anaviy javob emas, balki yangi g'oya va qarashlarni izlashga yo'naltiruvchi savollar bilan rag'batlantiradi. Natijada talaba yoki o'quvchi o'z fikrini shakllantirish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish va ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. "Brainstorming" (aql hujumi) usuli esa ijodiy g'oyalarni erkin ilgari surish, tanqidiy fikrlashni to'xtatib turish va jamoaviy ijodiy muhitni yaratish orqali yangi yechimlar topish imkonini beradi. Bu usul o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z g'oyalarni ochiq ifoda etishga undaydi.

Bundan tashqari, interfaol ta'lim texnologiyalari, rol o'ynash mashg'ulotlari, kreativ yozuv mashqlari, klaster metodi va "debate" (munozara) usullari ham ijodiy tafakkurni rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu metodlar orqali o'quvchi faqat tayyor bilimni egallamay, balki uni mustaqil tahlil qilib, yangi g'oya va yondashuvlarni ilgari suradi. Umuman olganda, ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish metodlari o'quvchi shaxsining intellektual salohiyatini ochib berish, unda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va yangilikka intilish ruhini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, zamonaviy ta'lim paradigmasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Ijodkorlik va innovatsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ikki asosiy tayanchidir. Ijodkorlik – yangicha g'oyalarni yaratish va mavjud muammolarga noodatiy yechim topish jarayoni bo'lsa, innovatsiya – ushbu g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish, ularni ijtimoiy, texnologik yoki iqtisodiy foyda keltiruvchi shaklga aylantirishdir. Shu ma'noda, ijodkorlik innovatsiyaning manbai, innovatsiya esa ijodkorlikning natijasidir. Zamonaviy ta'lim tizimida innovatsiyalarni samarali joriy etish uchun, avvalo, o'quvchi va o'qituvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish zarur. Chunki yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish va ilg'or pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tadbiiq etish ijodiy fikrlashsiz mumkin emas. Ijodiy tafakkur o'qituvchi va talabaga o'z ish faoliyatida yangi yondashuvlarni ishlab chiqish, o'qitish metodikasini yangilash va o'z-o'zini rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, ijodkorlik va innovatsiyaning o'zaro bog'liqligi ijtimoiy va texnologik sohalarda ham namoyon bo'ladi. Ijodiy fikr asosida yaratilgan har bir yangi g'oya texnologik yangiliklarga zamin yaratadi, bu esa o'z navbatida jamiyatda sifat o'zgarishlarini yuzaga keltiradi. Innovatsion faoliyatning samaradorligi esa insonlarning ijodiy salohiyatiga, ularning yangi fikrlarni ilgari surish va amalda qo'llay olish qobiliyatiga bog'liq. Ta'lim jarayonida ijodkorlik va innovatsiyani uyg'unlashtirish o'quvchilarda yangilikka ochiqlik, tanqidiy fikrlash, tashabbuskorlik va moslashuvchanlik kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu esa nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki yosh avlodni raqobatbardosh, mustaqil va ijtimoiy faol shaxslar sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, ijodkorlik va innovatsiya bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro mustahkamlovchi jarayonlar bo'lib, ular ta'lim tizimining yangilanishi, ijtimoiy rivojlanish va milliy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

Ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirishda o'qituvchi shaxsi markaziy o'rin tutadi. Chunki o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarni yangicha fikrlashga, izlanishga va ijodiy faoliyatga ilhomlantiruvchi shaxsdir. Ijodkor o'qituvchi o'z darslarida an'anaviy metodlardan tashqari, interfaol va innovatsion yondashuvlardan foydalanib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil va ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'qituvchining ijodkorlikni rivojlantirishdagi eng muhim vazifalaridan biri – ijodiy muhit yaratishdir. Bunday muhitda o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etadi, xatodan qo'rqmaydi va yangicha yechimlarni izlashga intiladi. O'qituvchi rag'bat, samimiy muloqot va o'zaro ishonch asosida tashkil etilgan ta'lim muhitini yaratganda, har bir o'quvchi o'z ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, o'qituvchi ijodkorlikni rivojlantirishda motivatsion yetakchi sifatida ham maydonga chiqadi. U o'quvchilarni o'qish jarayonida faol ishtirok etishga, muammolarga noodatiy yondashishga va yangi g'oyalarni ilgari surishga ruhlantiradi. O'qituvchining ijodiy kayfiyati, pedagogik mahorati va yangilikka ochiqligi o'quvchilar uchun kuchli namuna bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limda o'qituvchining ijodkorligi, shuningdek, raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash bilan ham belgilanadi. O'qituvchi raqamli vositalar yordamida o'quv jarayonini interfaol shaklda tashkil etadi, ijodiy topshiriqlarni virtual muhitda amalga oshirish imkonini yaratadi. Bu esa ta'lim jarayonining zamonaviyligini ta'minlab, o'quvchilarning innovatsion fikrlashini rivojlantiradi.

Ta'lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish o'qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik yondashuvi va shaxsiy fazilatlari bilan bevosita bog'liqdir. Chunki o'qituvchi o'quv jarayonining yuragi bo'lib, u nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarni izlanishga, yangilik yaratishga, o'z fikrini erkin ifodalashga undovchi yo'lboshchidir. O'qituvchi o'z faoliyatida ijodiy yondashuvni qo'llagan sari, o'quvchilarda ham tafakkurning yangicha shakllari, mustaqil fikrlash va tahliliy qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi. Ijodkor o'qituvchi o'quvchilarni bir yo'nalishda fikrlashga majbur qilmaydi, aksincha, ularni turli nuqtai nazarlarni solishtirish, tahlil qilish va muqobil yechimlar topishga o'rgatadi. Bunday pedagogik yondashuv o'quvchilarni faqat tayyor bilimni o'zlashtirishdan emas, balki bilimni yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Shuningdek, o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri – ijodiy muhitni shakllantirishdir. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin bayon eta oladigan, xatodan qo'rqmaydigan, yangi g'oyalarni sinovdan o'tkaziladigan muhitda ijodiy fikrlash tezroq rivojlanadi. O'qituvchi har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini inobatga olib, ularga mos topshiriqlar berishi, ijodiy faoliyat uchun sharoit yaratishi zarur.



Raqamli davrda o'qituvchi ijodkorligi texnologik kompetensiya bilan ham chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy o'qituvchi interfaol platformalar, sun'iy intellekt vositalari, vizual taqdimot dasturlari va raqamli laboratoriyalar yordamida darslarni yanada qiziqarli va ijodiy qiladi. Bu esa nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning motivatsiyasini ham kuchaytiradi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'zining ijodiy yetakchilik rolini namoyon etishi kerak. U faqat bilim manbai emas, balki o'quvchilar uchun ruhiy ilhom manbai, yangilikka ochiqlik va intilish timsoli bo'lishi lozim. Har bir o'quvchi uchun o'qituvchi o'z qobiliyatini namoyon etish, ijodiy fikrini ro'yobga chiqarish imkonini beradigan yo'l boshchiga aylanishi kerak. Demak, o'qituvchi shaxsining ijodkorlikni rivojlantirishdagi o'rni beqiyosdir. U o'zining tashabbuskorligi, yangilikka intilishi, o'quvchilarga bo'lgan samimiy munosabati va innovatsion yondashuvi bilan ta'limda ijodiy muhitni yaratadi hamda yosh avlodni tafakkuri keng, yangilikka tayyor, kreativ shaxslar sifatida tarbiyalaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijodkorlik – bu inson tafakkurining eng yuksak darajasi bo'lib, u har bir sohada yangilik yaratish, mavjud bilimlarni qayta talqin etish va ularni amaliyotda samarali qo'llash imkonini beradi. Ijodiy fikrlash shaxsning mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy yondashish va nostandart yechim topish qobiliyatini shakllantiradi. Shu sababli zamonaviy ta'lim tizimida ijodkorlikni rivojlantirish shaxs kamolotining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijodkorlikni rivojlantirishda ta'lim jarayonining ochiqligi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, shuningdek interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorlikni rag'batlantiruvchi muhit o'quvchilarda erkin fikrlash, izlanish va yangilik yaratish qobiliyatini kuchaytiradi. Pedagogik nuqtai nazardan, ijodkorlikni shakllantirish uchun o'qituvchi o'z faoliyatida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, innovatsion metodlar va motivatsion rag'bat tizimini qo'llashi lozim. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini nafaqat bilim beruvchi, balki ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi tizimga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ijodkorlik – bu shaxsning o'zini anglash, yangilik yaratish va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish vositasidir. Uni ta'lim tizimi orqali shakllantirish – zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biridir. Chunki ijodkor inson – bu o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh, mustaqil va yangilikka intiluvchi shaxsdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2017). Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O'zbekiston.
2. Yuldashev, M. (2020). Pedagogik innovatsiyalar va ijodkorlikni rivojlantirish. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. G'ulomov, A., & To'xtayev, N. (2019). Ta'lim jarayonida ijodiy fikrlashni shakllantirish metodikasi. Toshkent: Istiqlol nashriyoti.
4. Xodjayeva, Z. (2021). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ijodkorlikka ta'siri. Pedagogika jurnali, №3, 45–51.
5. Robinson, K. (2011). Out of Our Minds: Learning to Be Creative. Oxford: Capstone Publishing.
6. Sternberg, R. J. (2018). Creativity: Theories and Themes: Research, Development, and Practice. New York: Academic Press.
7. Begmatov, B. (2022). Oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Toshkent: TDPU nashriyoti.
8. Vygotsky, L. S. (2004). Imagination and Creativity in Childhood. Journal of Russian and East European Psychology, 42(1), 7–97.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.